

«YANDEX STANSIYASI O‘YNALADIGAN AKSIYA»NI O‘TKAZISH QOIDALARI

1. Umumiy qoidalar

- 1.1. Mazkur Qoidalar «Yandex Stansiyasi o‘ynaladigan aksiya»ni (bundan buyon matnda – Aksiya) o‘tkazish tartibini, unda ishtirok etish shartlarini, g‘oliblarni aniqlash hamda sovrinlarni topshirish tartibini belgilaydi.
- 1.2. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Reklama to‘g‘risida»gi Qonuni, «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq o‘tkaziladi.
- 1.3. Aksiya lotereya, qimor o‘yini yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa faoliyat turi hisoblanmaydi.
- 1.4. Aksiya tashkilotchisi – «COSCOM» MChJ (Ucell savdo belgisi), STIR 201788904, yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, V. Vohidov ko‘chasi, 118-uy.
- 1.5. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.
- 1.6. Aksiyani o‘tkazish muddati: 2026-yil 1-iyuldan 2026-yil 30-sentyabrgacha (shu kuni ham) davom etadi.
- 1.7. Aksiya yakunlari va sovrinlar o‘yinlari mazkur Qoidalarda belgilangan sanalarda o‘tkaziladi.

2. Aksiya ishtirokchilari

- 2.1. Mazkur Qoidalarning 3-bandida nazarda tutilgan shartlarni bajargan jismoniy shaxslar, 2.2-bandda ko‘rsatilgan shaxslar bundan mustasno, Aksiyada ishtirok etishlari mumkin.
- 2.2. **Aksiyada quyidagi shaxslar ishtirok eta olmaydi:**
 - norezidentlar va chet el fuqarolari;
 - Tashkilotchi xodimlari.

Aksiya shartlariga mos kelmaydigan shaxslar sovrinlarni olish huquqiga ega emaslar. Agar ular g'olib deb topilsa, sovrin Tashkilotchining mulki bo'lib qoladi va uning ixtiyoriga ko'ra foydalaniladi.

2.3. Aksiya ishtirokchisi deb Aksiya davrida Ucell'ning o'z savdo ofislarida smartfon xarid qilgan va O'zbekiston Respublikasidagi istalgan mobil aloqa operatorining amaldagi telefon raqamini taqdim etgan jismoniy shaxs hisoblanadi. Mazkur telefon raqami Ishtirokchini identifikatsiya qilish maqsadida foydalaniladi.

3. Ishtirok etish tartibi

3.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi Aksiya davrida Ucell'ning o'z savdo ofislarida istalgan smartfonni xarid qilishi hamda O'zbekiston Respublikasidagi istalgan mobil aloqa operatorining amaldagi telefon raqamini taqdim etishi lozim.

3.2. Smartfonning har bir xaridi Aksiya ishtirokchilari bazasida alohida yozuv sifatida ro'yxatga olinadi.

3.3. Agar Ishtirokchi bir nechta smartfon xarid qilgan bo'lsa, har bir xarid Aksiya ishtirokchilari bazasida alohida hisobga olinadi.

3.4. Xaridlarni hisobga olish misoli:

- 1 ta smartfon xaridi = ishtirokchilar bazasida 1 ta yozuv.
- 2 ta smartfon xaridi = ishtirokchilar bazasida 2 ta yozuv.
- 3 ta smartfon xaridi = ishtirokchilar bazasida 3 ta yozuv.

3.5. Cheklovlar:

- Aksiyada ishtirok etuvchi xaridlar soni cheklanmagan.
- Smartfon qaytarilgan taqdirda, tegishli xarid yozuvi ishtirokchilar bazasidan chiqarib tashlanadi.
- Aksiya shartlarini buzgan holda rasmiylashtirilgan xaridlar ishtirokchilar bazasiga kiritilmaydi.

3.6. Aksiyada ishtirok etish Ucell'ning o'z savdo ofislarida smartfon xarid qilinganda avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

3.7. Aksiyada ishtirok etish uchun qo'shimcha ro'yxatdan o'tish talab etilmaydi.

3.8. Smartfonning har bir xaridi mazkur Qoidalarga muvofiq Aksiya ishtirokchilari bazasiga kiritiladi.

4. Sovrinlar o'yini va sovrinlar

4.1. Aksiya doirasida Aksiyaning belgilangan davrlari yakunlari bo'yicha 3 (uch) ta sovrinlar o'yini o'tkaziladi.

Sovrinlar jamg'armasi

Sovrin nomi	Soni
Yandex Stansiya Maks with Zigbee	1
Yandex Stansiya Midi	3
Yandex Stansiya Mini 3	2
Yandex Stansiya Mini Plyus	3
Jami	9

O'yin bosqichlari

Bosqich	Ishtirok davri	O'yin o'tkaziladigan sana*	Sovrinlar soni
1-bosqich	01.07.2026 – 31.07.2026	2026-yil avgust	3
2-bosqich	01.08.2026 – 31.08.2026	2026-yil sentyabr	3
3-bosqich	01.09.2026 – 30.09.2026	2026-yil oktabr	3

* O‘yin o‘tkaziladigan aniq sana Tashkilotchi tomonidan qo‘shimcha ravishda belgilanadi.

Sovrinlarning bosqichlar bo‘yicha taqsimlanishi

Sovrin nomi	1-bosqich	2-bosqich	3-bosqich	Jami
Yandex Mini Plyus (Ko‘k)	1	1	1	3
Yandex Mini 3 (Kulrang)	1	1	0	2
Yandex Midi (To‘q sariq)	1	1	1	3
Yandex Maks with Zigbee (Grafrit/Qora)	0	0	1	1
Jami sovrinlar	3	3	3	9

4.2. Aksiya g‘oliblari tasodifiy sonlar generatoridan foydalanilgan holda tasodifiy tanlash yo‘li bilan aniqlanadi.

4.3. Tashkilotchi g‘oliblarni aniqlash jarayonini tasodifiy sonlar generatoridan foydalangan holda videoga yozib oladi va tegishli videoyozuvni Ucell’ning rasmiy sahifalarida, shu jumladan Instagram va Telegram ijtimoiy tarmoqlarida e’lon qiladi.

4.4. Tashkilotchi sovrinlar o‘yinini o‘tkazish jarayonini video va (yoki) skrinshotlar orqali qayd etish huquqiga ega, jumladan:

- Ishtirokchilar ro‘yxatini shakllantirish va yuklash;
- G‘oliblarni tasodifiy tanlash jarayoni;
- O‘yin natijalarini aks ettirish.

4.5. Qayd etilgan materiallar Tashkilotchida saqlanishi va sovrinlar o‘yining shaffoqligini tasdiqlash, shuningdek yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizoli holatlarni hal etish maqsadida foydalanilishi mumkin.

4.6. Sovrinlar o‘yini natijalarining Ucell’ning rasmiy axborot resurslarida e’lon qilinishi g‘oliblar aniqlanganligining tegishli tasdig‘i hisoblanadi.

4.7. G‘oliblar soni sovrinlar soniga teng bo‘ladi.

4.8. Bir Ishtirokchi Aksiya davomida faqat bir marta g‘olib deb topilishi mumkin. Agar tasodifiy tanlov natijasida avval g‘olib bo‘lgan Ishtirokchi qayta tanlansa, tegishli sovrin bo‘yicha qayta o‘yin o‘tkaziladi.

4.9. Tashkilotchi sovrinlar o‘yinini o‘tkazishga to‘sqinlik qiluvchi holatlar yuzaga kelganda (jumladan bayram va dam olish kunlari, texnik yoki tashkiliy sabablar, yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari) o‘yin sanalarini o‘zgartirish huquqiga ega.

4.10. Aksiya materiallarida foydalanilgan tovarlar va sovrinlar tasvirlari sovrinlarning haqiqiy tashqi ko‘rinishi, komplektatsiyasi yoki xususiyatlaridan farq qilishi mumkin.

5. Natijalarni e‘lon qilish

5.1. Sovrinlar o‘yinlari natijalari Ucell’ning rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi.

5.2. G‘oliblar ro‘yxatida telefon raqamining yashirilgan ko‘rinishi va yutib olingan sovrin ko‘rsatiladi.

6. Sovrinlarni topshirish tartibi

6.1. G‘olib shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart. Sovrinni olish uchun g‘olib pasport yoki ID-kartaning asl nusxasini (JShShIR ko‘rsatilgan holda) taqdim etishi hamda sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini imzolashi lozim. Tashkilotchi Aksiya davrida smartfon xarid qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

6.2. Agar Ishtirokchi 18 yoshga to‘lmagan bo‘lsa, sovrin uning qonuniy vakili (ota-onasi yoki vasiyligi ostidagi shaxs)ga topshiriladi. Qonuniy vakil o‘z vakolatlarini tasdiqlovchi hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi shart.

6.3. Sovrinlar sovrinlar o‘yini o‘tkazilgan kundan boshlab 30 kalendar kuni ichida topshiriladi.

6.4. Sovrin qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan va sovrin amalda topshirilgan paytdan boshlab topshirilgan deb hisoblanadi.

6.5. 30 kalendar kuni davomida talab qilib olinmagan sovrinlar talab qilinmagan deb hisoblanadi va Tashkilotchining tasarrufida qoladi.

6.6. Tashkilotchi g‘olib aniqlangan kundan boshlab 14 kalendar kuni davomida g‘olib bilan bog‘lanish uchun 5 martagacha urinish qiladi.

6.7. Tashkilotchi yutuq haqida xabardor qilish hamda sovrinni topshirish tartibini kelishish maqsadida smartfon xaridi vaqtida ko‘rsatilgan telefon raqami orqali g‘olib bilan bog‘lanish huquqiga ega.

6.8. Zarur hujjatlarni taqdim etishni rad etish yoki sovrinni olish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni imzolashdan bosh tortish sovrinni olish huquqini bekor qilish uchun asos hisoblanadi.

6.9. G‘olib sovrinni olishdan bosh tortgan, u bilan bog‘lanishning imkoni bo‘lmagan yoki mazkur Qoidalarda belgilangan muddatlarda zarur hujjatlarni taqdim etmagan taqdirda, Tashkilotchi tegishli sovrin bo‘yicha qayta o‘yin o‘tkazish huquqiga ega.

7. Boshqa shartlar

7.1. Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha ma‘lumotlar Ucell’ning rasmiy veb-saytida o‘zbek va rus tillarida joylashtiriladi. Mazmun bo‘yicha tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, o‘zbek tilidagi talqin ustuvor hisoblanadi.

7.2. Aksiyada ishtirok etish fakti Ishtirokchining mazkur Qoidalarga roziligini anglatadi.

7.3. Tashkilotchi mazkur Qoidalarga o‘zgartirishlar kiritish huquqiga ega. O‘zgartirishlar haqidagi xabarnoma Ucell’ning rasmiy veb-saytida Qoidalarning yangilangan tahririni e‘lon qilish orqali amalga oshiriladi.

7.4. Tashkilotchi quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:

- Ishtirokchining Aksiya shartlari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lmasligi;
- Ishtirokchining aybi bilan ma‘lumotlarning o‘z vaqtida olinmasligi;
- G‘olibning sovrinni olishdan bosh tortishi;
- uchinchi shaxslar yoki Ishtirokchining o‘zi aybi bilan yuzaga kelgan texnik nosozliklar.

7.5. Tashkilotchi firibgarlik, hujjatlarni qalbakilashtirish, noto‘g‘ri ma‘lumotlar taqdim etish yoki mazkur Qoidalarni boshqa tarzda buzish holatlari aniqlangan taqdirda, Ishtirokchining Aksiyadagi ishtirokini bekor qilish huquqiga ega.

7.6. Tashkilotchi firibgarlikning oldini olish maqsadida qo‘shimcha texnik cheklovlarni joriy etish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

7.7. Tashkilotchi yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari oqibatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

7.8. Aksiyada ishtirok etgan holda, Ishtirokchi Aksiyani o‘tkazish va sovrinlarni topshirish uchun zarur bo‘lgan hajmda shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berilishiga rozilik bildiradi.

7.9. Sovrinlar O‘zbekiston Respublikasi hududida Tashkilotchining savdo ofislarida yoki manzili g‘olibga qo‘shimcha ravishda ma’lum qilinadigan Ucell ofisida topshiriladi.

7.10. Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ko‘rib chiqiladi.

8. Aksiyada ishtirok etgan holda, Ishtirokchi quyidagilarga rozilik bildiradi:

8.1. G‘oliblarni mazkur Qoidalarga muvofiq aniqlash tartibiga.

8.2. Aksiyani o‘tkazish jarayonida Ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxslarning huquqlari buzilganligi bilan bog‘liq da’volarni mustaqil ravishda hal etishga.

8.3. G‘olib deb topilgan taqdirda, o‘zi haqidagi ma’lumotlarning www.ucell.uz saytida va Tashkilotchining boshqa axborot resurslarida joylashtirilishiga.

8.4. Aksiya bilan bog‘liq reklama intervyularida, foto va video tasvirga olish jarayonlarida, shu jumladan radio, televideniye, Internet tarmog‘i va boshqa ommaviy axborot vositalari uchun ishtirok etishga, shuningdek uning ishtirokida yaratilgan foto, video va boshqa materiallarni Tashkilotchi va (yoki) u jalb qilgan uchinchi shaxslar tomonidan qo‘shimcha rozilik olmasdan hamda hech qanday haq to‘lamasdan e’lon qilish va foydalanishga.

8.5. Agar mazkur Qoidalarda boshqacha nazarda tutilmagan bo‘lsa, sovrinni olish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni mustaqil ravishda qoplashga.

8.6. Tashkilotchining mazkur Qoidalarda bevosita nazarda tutilgan hollardan tashqari, Aksiya ishtirokchilari bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalarga kirishmaslik huquqiga ega ekanligiga.

8.7. Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq barcha nizolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etilishiga.